"TASDIQLAYMAN"
Bosh direktor o'rinbosari
B.T. Saloydinov

2024-yil 20-may

"Korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslari" mavzusida o'tkazilgan o'quv-seminari yuzasidan majlis
BAYONI

Toshkent sh. **2024-yil 20-may**

Qatnashdilar: "O'zbekiston respublika valyuta birjasi" AJ xodimlari.

Ma'ruzachi: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Komplaens-nazorat va ichki audit departamenti bosh mutaxassisi A.B. Jumayev

Davra suhbati "ZOOM" platformasi orqali "On-line" rejimda tashkil etildi.

A.B. Jumayev o'z ma'ruzasida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning 2024-yil 3-maydagi 735-sonli farmoyishi ijrosini ta'minlash maqsadida xodimlar ishtirokida korrupsiyaga qarshi kurashish, manfaatlar to'qnashuvi va odob-axloq qoidalariga oid tartib-qoidalar yuzasidan o'quv-seminar o'tkazish vazifasi yuklatilganligiga to'xtalib o'tdi.

So'ngra, ma'ruzachi quyidagilar haqida slayd ko'rinishida tushuntirishlar berdi:

- Korrupsiya tushunchasi, uning shakllari va sabablari;
- Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilik;
- Markaziy bankda korrupsiyaga qarshi kurashishga doir ichki hujjatlar;
- Korrupsiyaviy harakatlar uchun javobgarlik;
- Markaziy bank xodimlarining mehnat shartnomasida belgilangan korrupsiyaga qarshi kurashish yuzasidan majburiyatlar.

Jumladan, o'quv seminarida korrupsiya lotincha "corruptio" so'zidan olingan bo'lib, "emirilish", "buzilish" degan ma'nolarni anglatishi. Korrupsiya so'zining ijtimoiy ko'rinishi "xokimiyatni buzish, chiritish orqali sotib olish" degan ma'noni berishi qayd etildi.

O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida"gi Qonunida korrupsiya so'ziga quyidagicha ta'rif berilganligi ta'kidlandi korrupsiya - shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish.

Ma'ruzachi korrupsiyaning kelib chiqishi, ijtimoiy xavfliligi va uning turlari. korrupsiyani vujudga keltiruvchi shart-sharoitlar, korrupsiyaviy holatlarning paydo bo'lish sabablari to'g'risida tushuncha berdi.

Davra suhbati davomida ma'ruzachi Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi quyidagi qonunchilik hujjatlari va Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro shartnomalarga alohida to'xtalib o'tdi.

1. O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi O'RQ-419-sonli "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonuni;

2. O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 11-sentyabrdagi O'RQ-445-sonli "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi qonuni;

3. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 8-yanvardagi O'RQ-457-sonli "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi qonuni;

4. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi O'RQ-684-sonli "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonuni;

5. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 12-apreldagi O'RQ-474-sonli "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi qonuni;

6. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 10-maydagi O'RQ-537-sonli "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi qonuni va boshqalar;

7. Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2003-yil 31-oktyabrdagi "Korrupsiyaga qarshi" konvensiyasi (O'zbekiston Respublikasi 2008-yil 7-iyulda qo'shilgan);

8. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti doirasida 2003-yil 10-sentyabrda qabul qilingan korrupsiyaga qarshi kurashning Istanbul rejasi (O'zbekiston Respublikasi 2010-yil mart oyida qo'shilgan).

Ma'ruzachi Markaziy bankda korrupsiyaga qarshi kurashishga doir ichki hujjatlar to'g'risida davra suxbati ishtirokchilariga atroflicha tushuntirish berdi.

Shundan so'ng, ma'ruzachi O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi va O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida belgilangan korrupsiyaviy harakatlar uchun javobgarlik masalalari bo'yicha hamda Markaziy bank xodimlarining mehnat shartnomasida belgilangan korrupsiyaga qarshi kurashish yuzasidan majburiyatlar davra suxbati ishtirokchilariga atroflicha tushuntirish berdi.

A.B. Jumayevning ma'ruzasi O'zRVB xodimlari tomonidan katta qiziqish bilan tinglandi va tadbir so'nggida xodimlar o'zlarini qiziqtirgan savollariga ma'ruzachidan atroflicha javob olishdi. Davra suhbati yakunida xodimlar o'zlarining samimiy minnatdorchiliklarini bildirdilar.

Bayonlashtirildi:

Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'yicha mas'ul xodim **O.E.Umurzakov**

20-05-2024-yil